

Uyruv

NAVOIY INNOVATSIYALAR UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Navoiy innovatsiyalar universiteti
rektori J. Mavlonov


Ro'yxatga olindi

2026 yil "02" 03


2026 yil "02" 03

"Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)"
yo'nalishi bitiruvchilari uchun
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI
DASTURI

Ushbu dastur **Navoiy innovatsiyalar universiteti** Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun yo'nalish fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o'tkazish uchun tuzilgan bo'lib, universitet Kengashining "___" "_____" 2026 yil ___-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Navoiy innovatsiyalar universiteti O'quv-uslubiy kengashida muhokama qilingan va "___" "_____" 2026 yil ___-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan. O'quv ishlari va ilmiy-innovatsiyalar bo'yicha prorektor  Sh.J. Xudoyorov

"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasida muhokama qilingan va "___" "_____" 2026 yil ___-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasida muhokama qilingan va "___" "_____" 2026 yil ___-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan. Kafedra mudiri  B.A. Yerkulov

Asos: - O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 iyunda 1963-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida Nizom;


- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 26 sentabrda 3069-son bilan ro'yxatga olingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom.


- O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil 7 noyabrdagi 26-2018-sonli buyrug'i.

Tuzuvchi:

"Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasida dotsent  H.N. Baqoyev

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi: "Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari" kafedrasida dotsent  N.A. Mamadaliyeva

Tashqi taqrizchi: Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasida v.b.dotsent  B.M. Rajabov

MUNDARIJA

1. Kirish	4
2. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni. "Iqtisodiyot" yo'nalishi fanlarining mazmuni.....	4
3. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi	5
4. Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtsodiyot, makroiqtisodiyot fanlaridan o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholash mezon.....	6
5. Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtsodiyot, makroiqtisodiyot fanlaridan o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi bo'yicha savollar to'plami.....	8
6. Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtsodiyot, makroiqtisodiyot fanlaridan o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi uchun foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar.....	25

Kirish

Yakuniy davlat attestatsiyasining maqsadi talabalarning asosiy kasbiy ta'lim dasturini o'zlashtirish natijalarining davlat ta'lim standartining tegishli talablariga muvofiqligini aniqlashdir.

Mazkur dastur bakalavriat: 60310100 – "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi bitiruvchi talabalari uchun mo'ljallangan. Iqtisodiyot nazariyasi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit kabi fanlarni jamlagan holda iqtisodiy bilimlarning nazariy asoslarini, iqtisodiyotning asosiy tushunchalari va toifalarini, iqtisodiy qonuniyatlari va tamoyillarini o'rgatish, hamda amaliyotda ularni qo'llay olish xususiyatini aniqlashdan iborat.

UMUMIY QOIDALAR

I. Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar dasturining mazmuni.

Iqtisodiyot yo'nalishi fanlarining mazmuni.

Iqtisodiyot yo'nalishi fanlari iqtisodiyot tushunchalarini, uning qonun-qoidalarini, tejamli xo'jalik yuritish sirlarini, turli kishilar va xo'jaliklarning bir-birlari bilan manfaatli iqtisodiy aloqada bo'lib, umumli mehnat qilish yo'llarini va shakllarini o'rgatadi.

Iqtisodiyot yo'nalishi fanlarining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- iqtisodiy atamalar, tushunchalar va nazariyalar haqida bilim va tushunchalarni o'rgatish;
- iqtisodiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishga o'rgatish;
- iqtisodiy tahlil qila olishni o'rgatish;
- iqtisodiy g'oyalarni yozma ravishda mantiqiy va to'g'ri tasvirlashni o'rgatish;
- iqtisodiy tadqiqot olib borishda iqtisodiy kontsepsiyalarni qo'llay olishni o'rgatish.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi Navoiy innovatsiyalar universiteti Kengashining _____ yil _____ dagi № _____-sonli qaroriga muvofiq yozma ravishda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi universitet o'quv jarayoni grafigiga mos sanalarda tashkil etilib, talabalarga aniq vaqti kamida 30 kun oldin e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi tayyorgarlik va maslahatlar registrator ofis tomonidan tasdiqlangan jadval asosida tashkil etilib, kafedra tomonidan biriktirilgan professor-o'qituvchilar tomonidan olib boriladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga 60310100- "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma shaklda o'tkazish "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" bakalavr ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining majburiy fanlar blokidagi bir necha fanlardan iborat bo'lib, bitiruvchi talaba 2 ta alohida fanlararo sinov topshiradi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan o'quv rejaning majburiy fanlar blokidagi umumkasbiy va mutaxassislik fanlar nomi:

1. Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot.

Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholash ushbu dasturning "Baholash mezonlari" bo'limidagi talablar asosida amalga oshiriladi

Yakuniy davlat attestatsiya sinovi bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keying 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun universitet rektorining buyrug'i bilan appelyatsiya komissiyasi tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiya jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar baho e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egalar.

**Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtisodiyot,
makroiqtisodiyot fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovini
baholash mezonlari**

Talabalar bilimini baholashda fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" ta'lim yo'nalishi malaka talablaridagi bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiy malaka talablarga ham javob bera olish darajasi aniqlanadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini yozma shaklda o'tkazilib, har bir sinovda bitiruvchi talabalarga alohida imtihon biletleri taqatiladi. Imtihon biletleri ushbu dasturning "Yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkaziladigan fanlar bo'yicha savollar to'plami" bo'limidagi savollardan 5 ta savoldan iborat etib tuziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini baholashda har bir savol alohida 20 ballik tizimda baholanib, umumiy baho 100 ballik tizimda har bir savoldan olingan baholarni yig'indisi tarzida butun songa yaxlitlab qo'yiladi.

Talabani yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi bilim darajasini baholashda quyidagi jadvalda keltirilgan mezonlarga amal qilinadi:

Baho	Bilim darajasi
1	2
5 (a'lo)	Agar talaba imtihon biletida berilgan savollarga mantiqiy, izchil javob yozsa va qo'shimcha tushuntirishlar talab etilmasa, "a'lo" bahosi qo'yiladi. Mantiqiy xulosalar chiqaradi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal qiladi. Talabani javobi batafsil, ishonchli, aniq ifodalangan. Talaba dastur materialini har tomonlama tizimli va chuqur bilishini namoyish etadi; kontseptual apparatga egalik qiladi; savolda ko'rsatilgan muammoni hal qilishda turli yondashuvlarni tahlil qilish va taqqoslash qobiliyatini namoyish etadi; nazariy fikrlarni amaliyotdan misollar bilan tasdiqlaydi.
4 (yaxshi)	Talaba savollarga tizimli, izchil va ishonchli javob yozsa, "yaxshi" bahosi qo'yiladi. Materialni tahlil qilish qobiliyatini namoyish etadi, lekin uning barcha xulosalari asosli va dalillarga asoslangan emas. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlariga amal

bo'yicha	qiladi. Talaba dastur materialini bo'yicha mustahkam bilimni kashf etadi; hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi asosiy qonuniyatlar va munosabatlarni bilish, nazariya bilimlarini kasbiy xarakterdagi muammolarni hal qilishda qo'llashga qodir, ammo javobda individual xatolar va noaniqliklarga yo'l qo'yadi.
70-89,9	
3 (qoniqarli)	"Qoniqarli" baho, agar talaba javob yozganda, asosan, kasb bo'yicha kelgusi ish uchun zarur bo'lgan hajmda dasturiy materialni bilsa, qo'yiladi. Shu bilan birga, u savollarga javob yozishda xato qiladi. U tomonidan berilgan ibora yetarlicha aniq emas, javoblarda noaniqliklarga yo'l qo'yiladi. Masala yuzasidan yuzaki bilimni namoyon etadi, xulosa chiqarishda qiynaladi, lekin ko'rilayotgan masalalar bo'yicha asosiy toifalarning mohiyatini talaba tushunganligi ko'rinib turibdi. Adabiy fikrini ifodalash normalarining buzilishi amalda kuzatilmaydi.
Kredit-modul tizimi bo'yicha	
60-69,9	
2 (qoniqarsiz)	Agar javob berishda asosiy dastur materialini bilishda sezilarli kamchiliklar aniqlansa, talabaga "qoniqarsiz" baho qo'yiladi; imtihon biletini savollariga javob yozishda fundamental xatolarga yo'l qo'yadi. Materiallar nomuvofiq berilgan, bilimlar tizimining mavjudligini ko'rsatmaydi. Adabiy fikrini ifodalash me'yorlarini sezilarli darajada buzgan.
Kredit-modul tizimi bo'yicha	
0-59,9	

3. Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot fanlaridan o'tkaziladigan Yakuniy davlat attestatsiyasi bo'yicha savollar to'plami

IQTISODIYOT

1. Iqtisodiyot nazariyasining predmeti nimadan iborat va u qanday muammolarni o'rganadi? *Tayanch iboralar: iqtisodiyot tushunchasi, ehtiyoj, resurs cheklanganligi, tanlov, ishlab chiqarish, taqsimot, iqtisodiy muammo*
2. Takror ishlab chiqarish jarayonining bosqichlarini (ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol) oddiy misol orqali tushuntiring. *Tayanch iboralar: takror ishlab chiqarish, ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, iste'mol, uzluksizlik, iqtisodiy aylanish*
3. Iqtisodiy resurslar va ehtiyojlar o'rtasidagi bog'liqlik nimada namoyon bo'ladi? *Tayanch iboralar: ehtiyojning o'sishi, resurslar cheklanganligi, tanlov, samaradorlik, ustuvorlik, qondirish darajasi, muqobil xarajat*
4. Ishlab chiqarish omillari va ularning o'zaro bog'liqligini oddiy misolda tushuntiring. *Tayanch iboralar: yer, mehnat, kapital, tadbirkorlik, o'zaro bog'liqlik, o'rinni bosish, samaradorlik*
5. Yalpi mahsulot, oraliq mahsulot va qo'shilgan qiymat o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: yalpi mahsulot, oraliq mahsulot, pirovard mahsulot, qo'shilgan qiymat, takroriy hisob, sof mahsulot, milliy daromad*
6. Unumdorlikning pasayib borishi qonuni nimani anglatadi va qachon yuzaga keladi? *Tayanch iboralar: so'nggi qo'shilgan mahsulot, o'zgaruvchi omil, qisqa muddat, pasayish, samaradorlik, ishlab chiqarish hajmi, resurslar*
7. Iqtisod tizimlarining asosiy turlarini (an'anaviy, bozor, buyruqbozlik, aralash) qisqacha tavsiflang. *Tayanch iboralar: iqtisod tizim, resurs taqsimoti, bozor mexanizmi, davlat roli, mulkchilik, samaradorlik, boshqaruv*
8. Mulchilikning iqtisodiy va huquqiy jihatlarini nimasi bilan farqlanadi? *Tayanch iboralar: mulk obyekti, mulk subyekti, egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish, huquqiy shakl, iqtisodiy manfaat*
9. Xususiy lashtirish jarayoni iqtisodiyotni isloh qilishda qanday rol o'ynaydi? *Tayanch iboralar: davlat tasarrufidan chiqarish, xususiy mulk, samaradorlik, raqobat, investitsiya, islohot, O'zbekiston tajribasi*
10. Natural xo'jalik va tovar xo'jaligi o'rtasidagi asosiy farqlar nimada? *Tayanch iboralar: natural ishlab chiqarish, tovar ishlab chiqarish, bozor, ayirboshlash, mustaqil ishlab chiqaruvchi, mehnat taqsimoti, pul*

11. Tovarning ikki xususiyati (naflilik va qiymat) nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: naflilik, qiymat, ayirboshlash qobiliyati, mehnat sarfi, ijtimoiy zaruriy vaqt, talab, narx*

12. Qiymat qonuni bozor sharoitida qanday amal qiladi? *Tayanch iboralar: qiymat qonuni, narx, talab va taklif, ijtimoiy zaruriy mehnat, raqobat, muvozanat, og'ish*

13. Bozor iqtisodiyotining asosiy belgilarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: xususiy mulk, erkin narx, raqobat, talab va taklif, foyda motivi, erkin tadbirkorlik, bozor mexanizmi*

14. Bozor iqtisodiyotining subyektlari va ularning vazifalarini izohlang. *Tayanch iboralar: uy xo'jaligi, tadbirkorlik sektori, davlat sektori, banklar, resurs bozori, tovar bozori, daromad*

15. "O'zbek modeli"ning asosiy tamoyillari nimadan iborat? *Tayanch iboralar: bosqichma-bosqichlik, kuchli davlat, ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi, islohot, milliy xususiyat, barqarorlik*

16. Talab qonuni nimani anglatadi va unga ta'sir qiluvchi omillarni tushuntiring. *Tayanch iboralar: talab miqdori, narx, daromad, did, substitut, Engel qonuni, Giffen samarasi*

17. Taklif qonuni va taklif egri chizig'ining mazmunini izohlang. *Tayanch iboralar: taklif miqdori, narx o'sishi, ishlab chiqarish xarajati, texnologiya, soliqlar, ishlab chiqaruvchi soni, foyda*

18. Bozor muvozanati qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: muvozanat narx, muvozanat miqdor, ortiqchalik, tanqislik, talab va taklif kesishishi, bozor mexanizmi, moslashuv*

19. Raqobatning iqtisodiyotdagi vazifalarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: samaradorlik, narx pasayishi, sifat oshishi, innovatsiya, resurs taqsimoti, bozor signali, tanlov*

20. Monopoliyaning vujudga kelish sabablari nimada? *Tayanch iboralar: kapital to'planishi, kirish to'siqlari, patent, tabiiy monopoliya, resurs nazorati, bozor ulushi, markazlashuv*

21. Sof raqobat va sof monopoliya o'rtasidagi asosiy farqlarni tushuntiring. *Tayanch iboralar: ko'p sotuvchi, yagona sotuvchi, narx qabul qiluvchi, narx belgilovchi, mahsulot bir xil, kirish erkinligi, foyda*

22. Narxning iqtisodiy mazmunini tushuntiring. *Tayanch iboralar: qiymat ifodasi, pul shakli, talab va taklif, xarajat, foyda, bozor signali, muvozanat*

23. Narxning asosiy vazifalari nimadan iborat? *Tayanch iboralar: axborot berish, rag'batlantirish, taqsimlash, muvozanat, nazorat, daromad shakllanishi, resurs yo'naltirish*

24. Erkin narx va tartibga solinadigan narx o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: erkin narx, davlat nazorati, maksimal narx, minimal narx, bozor mexanizmi, aralashuv, barqarorlik*

25. Tadbirkorlik faoliyatining asosiy belgilarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: tashabbus, risk, foyda olish, mustaqillik, innovatsiya, kapital, bozor*

26. Aksiyadorlik jamiyati va uning kapitali qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: aksiya, dividend, ustav kapitali, aksiyador, nazorat paketi, obligatsiya, investitsiya*

27. Asosiy va aylanma kapital o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: asosiy kapital, aylamma kapital, amortizatsiya, aylanish tezligi, ishlab chiqarish sikli, eskirish, tiklanish*

28. Doimiy va o'zgaruvchi xarajatlar o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: doimiy xarajat, o'zgaruvchi xarajat, ishlab chiqarish hajmi, ijara, xomashyo, ish haqi, tannarx*

29. Zarar ko'rmaslik nuqtasi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: daromad, xarajat, foyda nol, break-even, ishlab chiqarish hajmi, grafik, muvozanat*

30. Foyda miqdoriga qanday omillar ta'sir qiladi? *Tayanch iboralar: narx, tannarx, sotish hajmi, xarajatlar, soliq, samaradorlik, bozor talabi*

31. Ish haqi qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: mehnat bozori, talab, taklif, umumdorlik, minimal ish haqi, kasaba uyushma, shartnoma*

32. Nominal va real ish haqi o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: nominal daromad, real daromad, inflyatsiya, narx indeksi, xarid qobiliyati, daromad, iste'mol*

33. Kasaba uyushmalari ish haqi darajasiga qanday ta'sir qiladi? *Tayanch iboralar: jamoa shartnomasi, muzokara, ish tashlash, talab oshishi, bandlik, himoya, ijtimoiy sug'urta*

34. Yer resursining o'ziga xos xususiyatlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: cheklanganlik, tabiiy umumdorlik, joylashuv, takror ishlab chiqarish, renta, ijaraga berish, mulk*

35. Differensial va absolyut renta o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: differensial renta, absolyut renta, umumdorlik farqi, yer narxi, talab, taklif, daromad*

36. Agrobiznes va agrosanoat integratsiyasining ahamiyati nimada? *Tayanch iboralar: integratsiya, fermer xo'jaligi, qayta ishlash, bozor, samaradorlik, investitsiya, ishlab chiqarish zanjiri*

37. Milliy iqtisodiyot tushunchasi va uning tuzilishini izohlang. *Tayanch iboralar: milliy iqtisodiyot, tarmoqlar, sektorlar, resurslar, ishlab chiqarish, xizmatlar, makroko'rsatkichlar*

38. YAIM va YMM o'rtasidagi farqni oddiy misol bilan tushuntiring. *Tayanch iboralar: YAIM, YMM, rezident, nerezident, hududiy prinsip, milliy prinsip, qo'shilgan qiymat*

39. YAIMni hisoblashning 2 asosiy usulini (qo'shilgan qiymat va sarf-xarajat) taqqoslang. *Tayanch iboralar: qo'shilgan qiymat, sarf-xarajat usuli, iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari, sof eksport, oraliq mahsulot*

40. Yalpi talab egri chizig'i nima va u nimaga bog'liq? *Tayanch iboralar: AD, narx darajasi, iste'mol, investitsiya, davlat xarajatlari, sof eksport, pul bozori*

41. Yalpi taklif egri chizig'ining 3 kesmasini (yotiq-oraliq-tik) tushuntiring. *Tayanch iboralar: AS, yotiq kesma, oraliq kesma, tik kesma, resurs bandligi, ishlab chiqarish hajmi, narxlar*

42. AD-AS muvozanati buzilganda iqtisodiyot qanday moslashadi? *Tayanch iboralar: muvozanat, shok, inflyatsiya, ishsizlik, xrapovik samarasi, ishlab chiqarish, siyosat*

43. Iste'mol va jamg'arma o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring. *Tayanch iboralar: daromad, iste'mol, jamg'arma, proporsiya, o'rtacha moyillik, keyingi moyillik, farovonlik*

44. Investitsiyalar nima uchun iqtisodiy o'sishda muhim? *Tayanch iboralar: investitsiya, kapital jamg'arish, ishlab chiqarish quvvati, bandlik, texnologiya, umumdorlik, o'sish*

45. Jamg'arma-investitsiya muvozanatini klassik va keynscha qarashlarda qanday tushuntiriladi? *Tayanch iboralar: klassik model, keynscha model, foiz stavkasi, daromad, talab, muvozanat, bozor mexanizmi*

46. Iqtisodiy taraqqiyot va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: o'sish, taraqqiyot, sifat o'zgarishi, tarkibiy siljish, inson kapitali, texnologiya, farovonlik*

47. Ekstensiv va intensiv o'sishning farqi va misolini keltiring. *Tayanch iboralar: ekstensiv, intensiv, resurs ko'payishi, umumdorlik, texnologiya, investitsiya, samaradorlik*

48. Milliy boylikning tarkibiy qismlarini (moddiy, nomoddiy, tabiiy) izohlang. *Tayanch iboralar: milliy boylik, moddiy kapital, intellektual boylik, tabiiy resurs, infratuzilma, salohiyat, jamg'arma*

49. Iqtisodiy sikl fazalarini tushuntirib bering. *Tayanch iboralar: ko'tarilish, cho'qqi, pasayish, tub, bandlik, ishlab chiqarish, investitsiya*

50. Sikl sabablari bo'yicha ichki va tashqi nazariyalarni oddiy tilda farqlang. *Tayanch iboralar: internal omillar, eksternal omillar, pul omili, investitsiya, psixologiya, texnologiya, talab*

51. Inqiroz turlaridan 3 tasini tanlab, ularning oqibatlarini izohlang. *Tayanch iboralar: valyuta inqirozi, bank inqirozi, birja inqirozi, tarkibiy inqiroz, taqchillik, ishsizlik, inflyatsiya*

52. Ishchi kuchi tushunchasi va uning takror ishlab chiqarilishi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: ishchi kuchi, mehnat resursi, ta'lim, sog'liq, malaka, demografiya, migratsiya*

53. Ishsizlikning asosiy turlarini (friksion, tarkibiy, davriy) tushuntiring. *Tayanch iboralar: friksion, tarkibiy, davriy; bandlik, bozor moslashuvi, inqiroz, malaka*

54. Fillips egri chizig'i nimani ko'rsatadi va u qachon ishlamasligi mumkin? *Tayanch iboralar: Fillips egri, inflyatsiya, ishsizlik, kutilmalar, stagflyatsiya, siyosat, muvozanat*

55. Moliyaning asosiy vazifalarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: taqsimlash, qayta taqsimlash, nazorat, byudjet, jamg'arma, resurs, ijtimoiy soha*

56. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari nimadan iborat bo'ladi? *Tayanch iboralar: soliq, bojxona, transfert, ijtimoiy xarajat, investitsiya xarajat, ta'lim, sog'liq*

57. Byudjet taqchilligi va davlat qarzining iqtisodiyotga ta'sirini izohlang. *Tayanch iboralar: taqchillik, davlat qarzi, foiz to'lovi, inflyatsiya, investitsiya sig'ilishi, barqarorlik, fiskal siyosat*

58. $MV=PQ$ tenglamasi nimani anglatadi va u qachon foydali bo'ladi? *Tayanch iboralar: pul massasi, aylanish tezligi, narx darajasi, ishlab chiqarish hajmi, monetar yondashuv, inflyatsiya, muomala*

59. Inflyatsiyaning asosiy sabablari va turlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, o'rmalab, jadal, giperinflyatsiya, pul emissiyasi, narx*

60. Markaziy bank va tijorat banklarining farqi nimada? *Tayanch iboralar: Markaziy bank, tijorat banki, foiz stavkasi, kredit, depozit, nazorat, multiplikator*

61. Davlat iqtisodiyotni nima uchun tartibga soladi? *Tayanch iboralar: bozor o'zligi, barqarorlik, raqobat, ijtimoiy himoya, tashqi ta'sir, inflyatsiya, bandlik*

62. Bevosita va bilvosita tartibga solish usullariga misollar keltiring. *Tayanch iboralar: soliqlar, subsidiya, davlat buyurtmasi, narx nazorati, kredit siyosati, qonunchilik, kvota*

63. Nominal va real daromad, daromadlar tengsizligi tushunchalarini bog'lab izohlang. *Tayanch iboralar: nominal daromad, real daromad, inflyatsiya, Lorens egri, Jini koeffitsiyenti, tabaqalanish, qayta taqsimlash*

64. Jahon xo'jaligining shakllanishi va asosiy belgilarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: xalqaro mehnat taqsimoti, baynalmilallashuv, savdo, kapital harakati, integratsiya, FTT, TMK*

65. Globallashuvning ijobiy va salbiy tomonlarini 2 tadan misol bilan izohlang. *Tayanch iboralar: bozor kengayishi, raqobat, notenglik, ekologiya, migratsiya, inqiroz tarqalishi, integratsiya*

66. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy shakllarini sanab, qisqa izoh bering. *Tayanch iboralar: xalqaro savdo, kapital eksporti, mehnat migratsiyasi, texnologiya almashinuvi, valyuta munosabatlari, infratuzilma, hamkorlik*

67. Xalqaro iqtisodiy integratsiya nima va u nima uchun yuzaga keladi? *Tayanch iboralar: integratsiya, bozor kengayishi, savdo to'siqlari kamayishi, kapital oqimi, raqobat, ixtisoslashuv, hamkorlik*

68. Integratsiyaning asosiy shakllarini (erkin savdo, bojxona ittifoqi va boshqalar) tushuntiring. *Tayanch iboralar: erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor, iqtisodiy ittifoq, siyosiy integratsiya, kelishuv, institut*

69. O'zbekistonning jahon xo'jaligiga kirib borish yo'nalishlarini izohlang. *Tayanch iboralar: eksport, import, investitsiya, transport-logistika, mintaqaviy hamkorlik, ochiq iqtisodiyot, tashqi siyosat*

70. Mutlaq ustunlik va qiyosiy ustunlik nazariyalarini farqlab tushuntiring. *Tayanch iboralar: mutlaq ustunlik, qiyosiy ustunlik, ixtisoslashuv, muqobil xarajat, savdo foydasi, samaradorlik, resurs*

71. Proteksionizm va erkin savdo siyosatlarini taqqoslang. *Tayanch iboralar: tarif, kvota, subsidiyalar, erkin savdo, ichki bozor himoyasi, iste'molchi yutug'i, raqobat*

72. To'lov balansi nima va uning asosiy bo'limlari qaysilar? *Tayanch iboralar: joriy hisob, kapital hisobi, moliyaviy hisob, eksport-import, zaxiralar, valyuta kursi, balans*

IQTISODIY TA'LIMOTLAR TARIXI

1. "G'oyalar kuchi" iqtisodiy siyosat va jamiyat rivojiga qanday ta'sir qiladi? *Tayanch iboralar: g'oya, iqtisodiy siyosat, qaror qabul qilish, jamiyat, nazariya, ta'sir, tarixiy tajriba*

2. Robbins, Shumpeter va Stigler iqtisodiy fikrlar tarixini o'rganish zarurligini qanday asoslagan? *Tayanch iboralar: metodologiya, ilmiy maktab, tarixiy yondashuv, tanqidiy fikrlash, nazariya evolyutsiyasi, iqtisodchi, ilmiy meros*

3. Iqtisodiy fikrlar tarixida biografik va g'oyaviy (kontent) yondashuvlarning farqi nimada? *Tayanch iboralar: biografiya, nazariya mazmuni, tarixiy sharoit, shaxs roli, pedagogika, tahlil, ilmiy yondashuv*

4. Qadimiy dinlarda boylik va pulga munosabat qanday bo'lgan? *Tayanch iboralar: boylik, pul, axloq, ruhiy qadriyat, savdo, halollik, me'yor*
5. "Adolatli narx" tushunchasi qadimgi diniy qarashlarda nimani anglatgan? *Tayanch iboralar: adolatli narx, savdo, axloq, mehnat, narx belgilash, jamiyat, tenglik*
6. Foiz (sudxo'rlik) masalasiga qadimiy diniy qarashlar qanday yondashgan? *Tayanch iboralar: foiz taqiqi, sudxo'rlik, kredit, risk, vaqt, halollik, iqtisodiy ehtiyoj*
7. Aflotunning "ideal davlat" konsepsiyasida iqtisodiy tartib qanday ko'rsatilgan? *Tayanch iboralar: ideal davlat, mulk, tabaqa, adolat, taqsimot, boshqaruv, jamiyat*
8. Aristotelning qiymat va ayirboshlash haqidagi qarashlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: ayirboshlash, qiymat, tabiiy ehtiyoj, savdo, pul, adolat, me'yor*
9. Aristotel xususiy mulkni qanday asoslagan? *Tayanch iboralar: xususiy mulk, tabiiylik, javobgarlik, rag'bat, adolat, jamiyat, mehnat*
10. Forobiy va Ibn Sino asarlarida iqtisodiy fikrlarning asosiy yo'nalishi nimada? *Tayanch iboralar: jamiyat, adolat, mehnat, boshqaruv, farovonlik, axloq, bilim*
11. Amir Temur davridagi iqtisodiy siyosatning asosiy jihatlarini izohlang. *Tayanch iboralar: savdo yo'llari, soliq, tartib, xavfsizlik, infratuzilma, davlat boshqaruv, rivojlanish*
12. Alisher Navoiy va Bobur davrida iqtisodiy islohotlarning ahamiyati nimada? *Tayanch iboralar: ijtimoiy adolat, boshqaruv, boylik, madaniyat, islohot, jamiyat, meros*
13. Ilk nasroniylikda boylik va kambag'allikka munosabat qanday bo'lgan? *Tayanch iboralar: yetarililik, sadaqa, axloq, qashshoqlik, ortiqcha boylik, jamiyat, me'yor*
14. St. Tomas Akvinskiy savdo va adolatli narx masalasini qanday tushuntirgan? *Tayanch iboralar: adolatli narx, savdo, halollik, firibgarlik, sudxo'rlik, axloqiy me'yor, iqtisod*
15. O'rta asr tafakkurida xususiy va jamoa mulki qanday baholangan? *Tayanch iboralar: xususiy mulk, jamoa mulki, tenglik, axloq, rag'bat, taqsimot, jamiyat*
16. XVII-XVIII asrlarda iqtisodiy fikrda qanday o'zgarishlar yuz berdi? *Tayanch iboralar: modern davr, savdo kengayishi, pul muomalasi, davlat, nazariya, ilmiy yondashuv, bozor*
17. Adam Smit qarashlarida ijtimoiy ta'minot va iqtisodiy erkinlik qanday bog'langan? *Tayanch iboralar: erkin bozor, davlat vazifasi, adolat, xavfsizlik, farovonlik, tartib, nazariya*

18. Pul va savdoning kengayishi jamiyatdagi tengsizlikka qanday ta'sir ko'rsatgan? *Tayanch iboralar: savdo, pul, boylik, tabaqalanish, mulk, raqobat, iqtisodiy o'zgarish*
19. Merkantilistlar boylikni qanday tushungan va nima uchun oltin to'plashni muhim deb bilgan? *Tayanch iboralar: oltin-kumush, savdo balansi, milliy boylik, eksport, import cheklovi, davlat siyosati, proteksionizm*
20. Merkantilizm siyosiy iqtisodning shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatgan? *Tayanch iboralar: siyosiy iqtisod, davlat roli, savdo siyosati, milliy manfaat, nazariya, iqtisodiy boshqaruv, rivojlanish*
21. Merkantilistlarning pul nazariyasini qisqacha tushuntiring. *Tayanch iboralar: pul miqdori, narx darajasi, inflyatsiya, savdo, zaxira, Bodin, iqtisodiy barqarorlik*
22. Uilyam Petti iqtisodiyotga qanday yangilik kiritdi? *Tayanch iboralar: siyosiy arifmetika, o'lchash, milliy daromad, statistika, davlat siyosati, hisoblash, iqtisodiy tahlil*
23. Jon Lou g'oyalarining mazmuni va Missisipi tizimi tajribasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: qog'oz pul, kredit, bank, spekulyatsiya, moliyaviy pufak, inqiroz, tajriba*
24. Kantillon samarasi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: pul in'ektsiyasi, narxlar o'zgarishi, daromad taqsimoti, notekis ta'sir, bozor, model, iqtisodiy oqibat*
25. Adam Smitning "ko'rinmas qo'l" g'oyasi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: ko'rinmas qo'l, manfaat, erkin bozor, raqobat, muvozanat, resurs taqsimoti, samaradorlik*
26. Smit davlatning iqtisodiyotdagi rolini qanday belgilagan? *Tayanch iboralar: mudofaa, adolat, jamoat ishlari, erkinlik, soliqlar, infratuzilma, tartib*
27. "Unumli" va "unumsiz" mehnat tushunchalarini izohlang. *Tayanch iboralar: unumli mehnat, xizmat, ishlab chiqarish, qo'shilgan qiymat, boylik, sektor, nazariya*
28. Rikardoning renta nazariyasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: renta, yer unumdorligi, differensial renta, narx, qishloq xo'jaligi, talab, taqsimot*
29. Maltusning aholi nazariyasining mazmuni nimada? *Tayanch iboralar: aholi o'sishi, resurs cheklovi, oziq-ovqat, qashshoqlik, muvozanat, demografiya, xavf*
30. Sey qonuni nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: iaklif o'z talabini yaratadi, ishlab chiqarish, daromad, muvozanat, bozor, ortiqcha ishlab chiqarish, klassik nazariya*
31. Marksning tarixiy materializm nazariyasi nimani tushuntiradi? *Tayanch iboralar: tarixiy materializm, ishlab chiqarish usuli, sinf kurashi, iqtisodiy baza, ustqurma, o'zgarish, jamiyat*

32. Marksning qo'shimcha qiymat nazariyasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: qo'shimcha qiymat, mehnat, kapital, ekspluatatsiya, foyda, ish haqi, ishlab chiqarish*

33. Utopik sotsialistlar qanday jamiyat modelini taklif qilgan? *Tayanch iboralar: tenglik, hamkorlik, jamoa mulki, rejalashtirish, adolat, ideal jamiyat, nazariya*

34. Tarixiy maktab iqtisodiy nazariyaga qanday yondashgan? *Tayanch iboralar: tarixiy yondashuv, empirik tahlil, milliy xususiyat, evolyutsiya, institutlar, induksiya, metod*

35. Fridrix List milliy iqtisodiyot rivojini qanday tushuntirgan? *Tayanch iboralar: milliy sanoat, proteksionizm, davlat qo'llab-quvvatlashi, taraqqiyot bosqichi, raqobat, strategiya, mustaqillik*

36. Gustav Shmollerning asosiy g'oyalarini izohlang. *Tayanch iboralar: ijtimoiy siyosat, davlat, mehnat, institut, islohot, empirik tadqiqot, jamiyat*

37. Keyns bozor iqtisodiyotining qaysi kamchiliklarini ko'rsatdi? *Tayanch iboralar: ishsizlik, talab yetishmovchiligi, inqiroz, beqarorlik, investitsiya, kutilmalar, davlat aralashuvi*

38. "Umumiy nazariya" asarining asosiy g'oyasi nimada? *Tayanch iboralar: agregat talab, bandlik, multiplikator, foiz stavkasi, jamg'arma, investitsiya, muvozanat*

39. Keyns g'oyalari bugungi iqtisodiyotda qanchalik dolzarb? *Tayanch iboralar: fiskal siyosat, inqiroz, byudjet xarajati, ishsizlik, inflyatsiya, davlat, barqarorlik*

40. Shumpeterning "ijodiy vayronkorlik" g'oyasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: innovatsiya, tadbirkor, kapitalizm, raqobat, texnologiya, o'sish, yangilanish*

41. Hayek bozor mexanizmini qanday himoya qilgan? *Tayanch iboralar: narx signali, axborot, erkinlik, rejalashtirish tanqidi, bozor tartibi, spontan tizim, raqobat.*

42. Veblenning "bekorchilik sinfi" nazariyasini izohlang. *Tayanch iboralar: ko'rgazmali iste'mol, status, ijtimoiy tabaqa, xulq-atvor, boylik namoyishi, madaniyat, tanqid*

43. Sotsialistik hisoblash munozarasining mohiyati nimada? *Tayanch iboralar: rejalashtirish, narxlar, resurs taqsimoti, axborot, samaradorlik, bozor, bahs*

44. O'tish davri iqtisodiyoti nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: transformatsiya, xususiyashtirish, islohot, bozor institutlari, narx liberallashtirish, ijtimoiy himoya, muvozanat*

45. Sotsialistik va bozor iqtisodiyotini taqqoslang. *Tayanch iboralar: reja, erkin bozor, mulkchilik, rag'bat, samaradorlik, davlat roli, raqobat*

46. Iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotining ahamiyati nimada? *Tayanch iboralar: ilmiy nufuz, model, empirik tadqiqot, mukofot, yo'nalish, innovatsiya, nazariya*

47. Nobel laureatlarining iqtisodiy modellarini amaliy siyosatda qo'llash mumkinmi? *Tayanch iboralar: model, prognoz, siyosiy qaror, ma'lumot, samaradorlik, cheklov, baholash*

48. Nobel mukofotlari iqtisodiyot fanining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatdi? *Tayanch iboralar: ilmiy yo'nalish, yangi g'oya, metod, empirik tahlil, rag'bat, tadqiqot, taraqqiyot*

49. Ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asosiy kamchiliklari nimada edi? *Tayanch iboralar: rejalashtirish, narx nazorati, defitsit, samaradorlik pastligi, rag'bat muammosi, markazlashuv, resurs isrofi*

50. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari nimadan iborat? *Tayanch iboralar: bosqichma-bosqichlik, kuchli davlat, ijtimoiy himoya, qonun ustuvorligi, modernizatsiya, barqarorlik, milliy model*

51. Harakatlar strategiyasining iqtisodiy ahamiyatini tushuntiring. *Tayanch iboralar: islohot, investitsiya muhiti, liberallashtirish, raqobat, infratuzilma, ijtimoiy soha, o'sish*

MIKROIQTISODIYOT

1. Mikroiqtisodiyot fanining predmeti va asosiy vazifalarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: mikroiqtisodiyot predmeti, iqtisodiy subyekt, resurs cheklanganligi, tanlov, narx mexanizmi, induksiya va deduksiya, pozitiv va normativ tahlil*

2. Resurslarning cheklanganligi va ehtiyojlarning cheksizligi iqtisodiyotning bosh muammosini qanday shakllantiradi? *Tayanch iboralar: ehtiyoj, iqtisodiy resurs, tanlov, muqobil xarajat, samaradorlik, ishlab chiqarish imkoniyatlari, iqtisodiy qaror*

3. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i (PPC) nimani ko'rsatadi va u orqali qanday xulosalar chiqarish mumkin? *Tayanch iboralar: ishlab chiqarish imkoniyatlari, muqobil xarajat, transformatsiya koeffitsiyenti, samaradorlik, resurs to'liq bandligi, iqtisodiy o'sish, tanlov*

4. Talab va taklif qonunlarini grafik va nazariy jihatdan tushuntiring. *Tayanch iboralar: talab qonuni, taklif qonuni, narx, miqdor, talab chizig'i, taklif chizig'i, omillar*

5. Bozor muvozanati qanday shakllanadi va u qanday sharoitlarda o'zgaradi? *Tayanch iboralar: muvozanat narx, muvozanat miqdor, ortiqchalik, tanqislik, talab o'zgarishi, taklif o'zgarishi, bozor mexanizmi*

6. Davlat tomonidan maksimal va minimal narx o'rnatilishining oqibatlarini tahlil qiling. *Tayanch iboralar: maksimal narx, minimal narx, tanqislik, ortiqchalik, norasmiy bozor, minimal ish haqi, davlat aralashuvi*

7. Talabning narx bo'yicha elastikligi nimani anglatadi va u qanday hisoblanadi? *Tayanch iboralar: elastiklik koeffitsiyenti, foiz o'zgarish, elastik talab, noelastik talab, yoysimon elastiklik, daromad, narx*

8. Daromad va kesishgan talab elastikligi orqali tovar turlarini qanday aniqlash mumkin? *Tayanch iboralar: normal tovar, past kategoriyali tovar, oliy toifa tovar, kesishgan elastiklik, o'rmini bosuvchi tovar, to'ldiruvchi tovar, Engel qonuni*

9. Soliq yukining taqsimlanishida elastiklik qanday rol o'ynaydi? *Tayanch iboralar: soliq yuki, talab elastikligi, taklif elastikligi, narx o'zgarishi, ishlab chiqaruvchi, iste'molchi, taqsimot*

10. Naflilik nazariyasi iste'molchi tanlovini qanday tushuntiradi? *Tayanch iboralar: umumiy naflilik, chekli naflilik, kamayish qonuni, tanlov, qoniqish darajasi, iste'mol, optimal nuqta*

11. Befarqlik egri chizig'i va byudjet chizig'i yordamida iste'molchi muvozanatini tushuntiring. *Tayanch iboralar: befarqlik egri chizig'i, byudjet cheklovi, byudjet tenglamasi, chekli almashirish normasi, narx nisbati, optimal tanlov, muvozanat*

12. Daromad va almashirish samaralari iste'molchi xatti-harakatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: daromad samarasi, almashirish samarasi, umumiy samara, normal tovar, past toifa tovar, narx o'zgarishi, talab*

13. Individual talabdan bozor talabini shakllantirish jarayonini tushuntiring. *Tayanch iboralar: individual talab, bozor talabi, gorizontaal qo'shish, narx, miqdor, agregatsiya, iste'molchi*

14. Daromad va narx o'zgarishining talabga ta'sirini "daromad-iste'mol" va "narx-iste'mol" chiziqlari orqali izohlang. *Tayanch iboralar: daromad-iste'mol chizig'i, narx-iste'mol chizig'i, Engel egri chizig'i, normal tovar, past toifa tovar, almashirish, talab*

15. Iste'molchi va ishlab chiqaruvchi yutuq'i bozor samaradorligini qanday aks ettiradi? *Tayanch iboralar: iste'molchi yutuq'i, ishlab chiqaruvchi yutuq'i, maksimal to'lashga tayyorlik, minimal narx, muvozanat narx, yutuq zonasi, farovonlik*

16. Ishlab chiqarish funksiyasi va izokvanta tushunchalarini grafik jihatdan tushuntiring. *Tayanch iboralar: ishlab chiqarish funksiyasi, izokvanta, resurs kombinatsiyasi, chekli mahsuldorlik, texnologiya, o'zaro almashuv, MRTS*

17. Qisqa va uzoq muddatli ishlab chiqarish o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: qisqa muddat, uzoq muddat, o'zgaruvchi omil, doimiy omil, chekli mahsulot, ko'lam samarasi, samaradorlik*

18. Ishlab chiqaruvchi muvozanati qanday aniqlanadi? *Tayanch iboralar: izokosta, izokvanta, xarajat minimallashtirish, MRTS, narx nisbati, optimal kombinatsiya, maksimal ishlab chiqarish*

19. Iqtisodiy va buxgalteriya xarajatlari o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: ichki xarajat, tashqi xarajat, muqobil xarajat, normal foyda, iqtisodiy foyda, hisob, qaror*

20. Qisqa muddatli xarajat egri chiziqlarining o'zaro bog'liqligini izohlang. *Tayanch iboralar: doimiy xarajat, o'zgaruvchi xarajat, o'rtacha xarajat, chekli xarajat, U-shakl, samaradorlik, minimallashtirish*

21. Ko'lam samarasi uzoq muddatli xarajatlarga qanday ta'sir qiladi? *Tayanch iboralar: ijobiy ko'lam samarasi, manfiy ko'lam samarasi, o'zgarmas ko'lam, LRAC, ishlab chiqarish masshtabi, modernizatsiya, diversifikatsiya*

22. Mukammal raqobat sharoitida firma foydasini qanday maksimalashtiradi? *Tayanch iboralar: MR=MC qoidasi, chekli daromad, chekli xarajat, muvozanat hajmi, narx qabul qiluvchi, optimal ishlab chiqarish, foyda*

23. Firma yopilish nuqtasi va zararsiz ishlash nuqtasi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: yopilish nuqtasi, AVC, ATC, zarar, qisqa muddat, narx, qaror*

24. Tarmoqning uzoq muddatli muvozanati qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: erkin kirish, nol iqtisodiy foyda, LRAC minimumi, tipik firma, taklif, raqobat, barqarorlik*

25. Mehnatga talab qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: chekli mahsuldorlik, MRP, ish haqi, talab chizig'i, firma qarori, optimal bandlik, daromad*

26. Minimal ish haqi mehnat bozoriga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: minimal ish haqi, muvozanat ish haqi, ortiqcha taklif, ishsizlik, davlat siyosati, farovonlik, samaradorlik*

27. Investitsiya qarorini qabul qilishda diskontlash nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: diskontlash, foiz stavkasi, sof joriy qiymat, investitsiya samaradorligi, vaqt omili, risk, kapital*

28. Qisman va umumiy muvozanat o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: qisman muvozanat, umumiy muvozanat, bozorlar o'zaro bog'liqligi, Valras modeli, narxlar tizimi, resurs taqsimoti, barqarorlik*

29. Pareto samaradorligi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: Pareto optimal, farovonlik, yutuq, zarar, taqsimot, samaradorlik, resurs*

30. Soliq umumiy muvozanatga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: soliq, narx o'zgarishi, ortiqcha yuk, samaradorlik yo'qotilishi, taqsimot, davlat, kvaziopitimum*

31. Monopolist narx va ishlab chiqarish hajmini qanday belgilaydi? *Tayanch iboralar: MR-MC, talab chizig'i, monopol narx, hajm cheklovi, foyda, elastiklik, farovonlik yo'qotilishi*

32. Lerner koeffitsiyenti monopol hokimiyatni qanday o'lchaydi? *Tayanch iboralar: narx ustamasi, chekli xarajat, bozor kuchi, elastiklik, koeffitsiyent, raqobat darajasi, baholash*

33. Monopsoniya mehnat bozorida qanday oqibatlariga olib keladi? *Tayanch iboralar: yagona xaridor, ish haqi pasayishi, MRP, MC, bandlik kamayishi, ijtimoiy yo'qotish, muvozanat*

34. Narx diskriminatsiyasi qanday sharoitda qo'llaniladi? *Tayanch iboralar: bozor hokimiyati, segmentatsiya, elastiklik farqi, foyda oshirish, 1-daraja, 2-daraja, 3-daraja*

35. Ikki qismli tarif mexanizmini tushuntiring. *Tayanch iboralar: abonent to'lovi, birlik narxi, iste'molchi ortiqchaligi, maksimal foyda, tarif, talab, strategiya*

36. Blokli narxlar iste'molchilarga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: hajm chegirmasi, differensial narx, talab, daromad, bozor segmenti, foyda, strategiya*

37. Kurno modelida firmalar qanday qaror qabul qiladi? *Tayanch iboralar: miqdor raqobati, o'zaro bog'liqlik, Nesh muvozanati, talab, foyda, strategiya, barqarorlik*

38. Bertran va Shtakelberg modellari o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: narx raqobati, yetakchi firma, kuzatuvchi firma, strategik qaror, foyda, oligopoliya, model*

39. Monopolistik raqobatda uzoq muddatli muvozanat qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: tabaqalashtirilgan mahsulot, erkin kirish, nol foyda, talab egri chizig'i, zahira quvvat, reklama, raqobat*

40. "Limonlar bozori" muammosi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: asimmetrik axborot, sifat noaniqligi, noqulay tanlov, narx pasayishi, bozordan chiqish, signallar, ishonch*

41. Ma'naviy tavakkalchilik qanday yuzaga keladi? *Tayanch iboralar: risk, sug'urta, nazorat, rag'bat, axborot nomutanosibliigi, prinsipal-agent, xarajat*

42. Diversifikatsiya va xedjirlashtirish riskni qanday kamaytiradi? *Tayanch iboralar: risk taqsimlash, portfel, fyuchers, opsiya, sug'urta, tavakkalchilik, investitsiya*

43. Tashqi samaralar bozor muvaffaqiyatsizligiga qanday olib keladi? *Tayanch iboralar: salbiy tashqi samara, ijobiy tashqi samara, MSC, MPC, farovonlik yo'qotilishi, davlat siyosati, soliq*

44. Kouz teoremasi nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: mulk huquqi, kelishuv, tranzaksiya xarajati, samaradorlik, tashqi ta'sir, bozor, muammo hal qilish*

45. Sof ijtimoiy ne'matning xususiyatlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: tanlanmaslik, ajratib bo'lmazlik, biletsiz muammo, umumiy foydalanish, davlat, moliyalashtirish, farovonlik*

46. Bozor oqibatlari qanday holatlarda yuzaga keladi? *Tayanch iboralar: monopoliya, tashqi samara, asimmetrik axborot, ijtimoiy ne'mat, samaradorlik, davlat aralashuvi, muvozanat*

47. Davlatning bevosita va bilvosita tartibga solish usullarini taqqoslang. *Tayanch iboralar: soliq, subsidiya, kvota, narx nazorati, litsenziya, rag'bat, cheklov*

48. Daromadlar tengsizligini kamaytirish uchun qanday mikroiqtsodiy vositalar qo'llaniladi? *Tayanch iboralar: qayta taqsimlash, Jini koeffitsiyenti, Lorens egri chizig'i, subsidiya, transfer to'lovlari, kambag'allik, ijtimoiy siyosat*

MAKROIQTISODIYOT

1. Makroiqtisodiyot mikroiqtsodiyotdan nimasi bilan farq qiladi? *Tayanch iboralar: agregat ko'rsatkichlar, milliy daromad, umumiy narx darajasi, bandlik, iqtisodiy siyosat, model, tahlil*

2. Ochiq va yopiq iqtisodiyot o'rtasidagi farqni tushuntiring. *Tayanch iboralar: eksport, import, tashqi sektor, kapital oqimi, savdo balansi, global integratsiya, ichki bozor*

3. Resurslar, daromad va xarajatlarning doiraviy aylanish modeli nimani ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: uy xo'jaligi, firmalar, ishlab chiqarish omillari, daromad oqimi, xarajat oqimi, ikki sektorli model, makro muvozanat*

4. YAIMni xarajatlar va daromadlar usuli bilan hisoblashni tushuntiring. *Tayanch iboralar: iste'mol, investitsiya, davlat xarajati, sof eksport, ish haqi, renta, foyda*

5. Nominal va real YAIM o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: narx indeksi, deflyator, inflyatsiya, ishlab chiqarish hajmi, taqqoslash, o'sish sur'ati, dinamik tahlil*

6. Milliy hisoblar tizimining iqtisodiy tahlildagi ahamiyati nimada? *Tayanch iboralar: SNA, agregatsiya, statistik ma'lumot, makro ko'rsatkich, solishtirish, prognoz, siyosat*

7. Iqtisodiy sikl fazalarini tavsiflang. *Tayanch iboralar: ko'tarilish, cho'qqi, pasayish, inqiroz, tiklanish, real YAIM, tebranish*

8. Ishsizlikning turlari va ularning iqtisodiy oqibatlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: friksion, tarkibiy, siklik, bandlik darajasi, to'la bandlik, daromad yo'qotilishi, ijtimoiy ta'sir*

9. Ouken qonuni nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: ishsizlik darajasi, real YAIM, potensial ishlab chiqarish, foiz farqi, bog'liqlik, iqtisodiy yo'qotish, prognoz*

10. Inflyatsiyaning asosiy turlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, o'rmaslovchi, jadal, giperinflyatsiya, narx darajasi, pul massasi*

11. Fillips egri chizig'i nimani ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: inflyatsiya, ishsizlik, qisqa muddat, uzoq muddat, muvozanat, kutilmalar, makro ta'rif*

12. Inflyatsiyaga qarshi siyosat vositalarini tahlil qiling. *Tayanch iboralar: monetar siyosat, fiskal siyosat, foiz stavkasi, pul taklifi, byudjet intizomi, barqarorlik, nazorat*

13. AD egri chizig'ining pasayuvchi bo'lish sabablari nimada? *Tayanch iboralar: foiz effekti, boyluk effekti, almashinuv effekti, narx darajasi, investitsiya, iste'mol, so'f eksport*

14. AS egri chizig'ining uch kesmasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: yotiq kesma, oraliq kesma, tik kesma, bandlik, narx moslashuvi, ishlab chiqarish, potensial YAIM*

15. AD va AS kesishgan nuqta nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: makro muvozanat, narx darajasi, real ishlab chiqarish, tebranish, siyosat, talab shoki, taklif shoki*

16. Iste'mol funksiyasi qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: daromad, iste'mol, jamg'arma, MPC, APC, grafik, muvozanat*

17. Investitsiya talabini belgilovchi omillarni tushuntiring. *Tayanch iboralar: foiz stavkasi, kutilmalar, daromad, amortizatsiya, kapital, risk, multiplikator*

18. Jamg'arma va investitsiya o'rtasidagi muvozanat nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: makro muvozanat, daromad darajasi, Keyns modeli, klassik model, foiz stavkasi, tenglik, barqarorlik*

19. Klassik va Keyns yondashuvlari o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: o'z-o'zini tartibga solish, talab yetishmovchiligi, bandlik, davlat aralashuvi, moslashuv, narxlar, ish haqi*

20. Keynsning bandlik nazariyasini tushuntiring. *Tayanch iboralar: agregat talab, samarali talab, ishsizlik, investitsiya, multiplikator, muvozanat, siyosat*

21. Multiplikator effekti nimani anglatadi? *Tayanch iboralar: boshlang'ich investitsiya, daromad o'sishi, MPC, zanjirli ta'sir, YAIM, fiskal siyosat, kengayish*

22. Pulga talabning asosiy motivlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: tranzaksion, ehtiyoj, spekulyativ, foiz stavkasi, likvidlik, daromad, balans*

23. Pul multiplikatori qanday ishlaydi? *Tayanch iboralar: majburiy zaxira normasi, bank depoziti, kredit, pul taklifi, kengayish, markaziy bank, mexanizm*

24. Pul bozorida muvozanat qanday shakllanadi? *Tayanch iboralar: pul taklifi, pul talabi, foiz stavkasi, kesishish nuqtasi, monetar siyosat, likvidlik, barqarorlik*

25. Davlat byudjeti iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: byudjet daromadi, byudjet xarajati, taqchillik, ijtimoiy dastur, qayta taqsimlash, fiskal siyosat, barqarorlik*

26. Davlat qarzining o'sishi qanday iqtisodiy oqibatlariga olib kelishi mumkin? *Tayanch iboralar: ichki qarz, tashqi qarz, foiz to'lovi, qarz yuklamasi, investitsiya siqilishi, uzoq muddat, xarf*

27. Soliqlar resurs va daromadlarni qayta taqsimlashda qanday rol o'ynaydi? *Tayanch iboralar: progressiv soliq, regressiv soliq, transfert, ijtimoiy tenglik, rag'bat, iste'mol, jamg'arma*

28. Diskretion va nodiskretion fiskal siyosat o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: avtomatik stabilizator, soliqlar, transfert to'lovlar, retsessiya, kengaytiruvchi siyosat, cheklovchi siyosat, muvozanat*

29. Ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat qanday ishlaydi? *Tayanch iboralar: so'f eksporti, kapital oqimi, valyuta kursi, foiz stavkasi, talab, import, muvozanat*

30. Fiskal siyosatning samaradorligini cheklovchi omillarni tushuntiring. *Tayanch iboralar: vaqt kechikishi, qaror jarayoni, siyosiy omil, davlat qarzi, inflyatsiya, crowding out, prognoz*

31. Markaziy bank pul taklifini qanday vositalar orqali tartibga soladi? *Tayanch iboralar: qayta moliyalash stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari, zaxira normasi, kredit, pul massasi, likvidlik, nazorat*

32. Ekspansion va restriktiv monetar siyosatning maqsadi nimada? *Tayanch iboralar: inflyatsiya, ishsizlik, foiz stavkasi, investitsiya, iqtisodiy o'sish, talab, barqarorlik*

33. Bank tizimining iqtisodiy barqarorlikdagi o'rni nimada? *Tayanch iboralar: depozit, kreditlash, likvidlik, moliyaviy vositachilik, risk boshqaruvi, markaziy bank, nazorat*

34. IS egri chizig'i qanday omillar ta'sirida siljiydi? *Tayanch iboralar: investitsiya, foiz stavkasi, fiskal siyosat, davlat xarajati, daromad, talab, muvozanat*

35. LM egri chizig'i qanday omillar bilan belgilanadi? *Tayanch iboralar: pul taklifi, pul talabi, foiz stavkasi, likvidlik, monetar siyosat, daromad, muvozanat*

36. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat qanday aniqlanadi? *Tayanch iboralar: kesishish nuqtasi, foiz stavkasi, milliy daromad, fiskal siyosat, monetar siyosat, kombinatsiya, barqarorlik*

37. Iqtisodiy o'sishning asosiy ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi? *Tayanch iboralar: real YAIM, o'sish sur'ati, jon boshiga daromad, potensial ishlab chiqarish, dinamik tahlil, farovonlik, uzoq muddat*

38. Harrod-Domar modelining asosiy g'oyasi nimada? *Tayanch iboralar: investitsiya, jamg'arma normasi, kapital koeffitsiyeni, barqaror o'sish, nomutanosiblik, dinamik muvozanat, risk*

39. Neokeynscha modellarda davlatning roli qanday baholanadi? *Tayanch iboralar: talab qo'llab-quvvatlash, investitsiya rag'bat, fiskal siyosat, barqaror o'sish, bandlik, muvozanat, rejalashtirish*

40. Solou modelining asosiy xulosasi nimada? *Tayanch iboralar: kapital jamg'arilishi, mehnat o'sishi, texnologiya, barqaror holat, jon boshiga daromad, uzoq muddat, samaradorlik*

41. Leontev paradoksi nimani ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: kapitalga boy mamlakat, eksport tarkibi, mehnat intensivligi, empirik tekshiruv, model tanqidi, savdo nazariyasi, farq*

42. Neoklassik modellarda texnologiya qanday rol o'ynaydi? *Tayanch iboralar: ishlab chiqarish funksiyasi, omil unumdorligi, innovatsiya, o'sish sur'ati, kapital, mehnat, samaradorlik*

43. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalarini taqqoslang. *Tayanch iboralar: mutlaq ustunlik, qiyosiy ustunlik, muqobil xarajat, ixtisoslashuv, savdo foydasi, ishlab chiqarish, samaradorlik*

44. Xalqaro savdo daromad taqsimotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: eksport, import, ish haqi, kapital daromadi, omil bahosi, tengsizlik, ixtisoslashuv*

45. Xalqaro savdoning milliy iqtisodiyot uchun afzalliklarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: samaradorlik, bozor kengayishi, texnologiya transferi, raqobat, o'sish, diversifikatsiya, farovonlik*

46. Tariflar iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi? *Tayanch iboralar: bojxona boji, import narxi, ichki ishlab chiqarish, iste'molchi zarari, davlat daromadi, farovonlik yo'qotilishi, himoya*

47. Kvotalar va subsidiyalar o'rtasidagi farq nimada? *Tayanch iboralar: import cheklovi, ishlab chiqaruvchi qo'llab-quvvatlash, narx, raqobat, budjet xarajati, proteksionizm, samaradorlik*

48. Damping va antidamping choralarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: past narx, tashqi bozor, raqobat, ichki himoya, savdo nizosi, siyosat, tartib*

49. To'lov balansining asosiy bo'limlarini tushuntiring. *Tayanch iboralar: joriy hisob, kapital hisobi, moliyaviy hisob, savdo balans, xizmatlar, transfert, zaxira*

50. To'lov balansini taqchilligi qanday tartibga solinadi? *Tayanch iboralar: valyuta kursi, zaxira, monetar siyosat, fiskal siyosat, import qisqartirish, eksport rag'bat, muvozanat*

51. To'lov balansini va valyuta kursi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring. *Tayanch iboralar: talab va taklif, valyuta bozori, kapital oqimi, savdo oqimi, kurs o'zgarishi, muvozanat, intervensiya*

52. Valyuta kursi qanday aniqlanadi? *Tayanch iboralar: erkin suzuvchi kurs, qat'iy kurs, talab, taklif, markaziy bank, intervensiya, muvozanat*

53. Valyuta kursiga ta'sir etuvchi omillarni tushuntiring. *Tayanch iboralar: inflyatsiya, foiz stavkasi, savdo balans, kapital oqimi, siyosiy barqarorlik, kutilmalar, risk*

54. Valyuta kursining o'zgarishi milliy iqtisodiyotga qanday ta'sir qiladi? *Tayanch iboralar: eksport, import, inflyatsiya, daromad, raqobatbardoshlik, to'lov balans, makro muvozanat*

Iqtisodiyot, iqtisodiy ta'limotlar tarixi, mikroiqtisodiyot, makroiqtisodiyot fanlaridan yakuniy davlat attestatsiya sinovi uchun foydalanishga tavsiya etiladigan adabiyotlar va manbalar

Asosiy adabiyotlar

1. Shodmonov Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. (I-II-qismlar) - T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2022. - 388 b., 346 b.

2. Xodiyev B.Y., Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Toshkent.: "Barkamol fayz media", 2017. 784 b.

3. Ergashev E.J., Bakiyeva L., Fayziyev Sh., Shermuxamedov B. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. Toshkent.: "Iqtisod-Moliya" 2019, 680 bet

4. Salimov B.T., Yusupov M.S., Salimov B.B. Mikroiqtisodiyot. Darslik (To'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021 - 448 b.

5. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. Makroiqtisodiyot. Darslik. -T.: 2019. - 290 bet.

6. Mirzaxodjayev A.B., Sharifov Sh.S., Boboqulov B.M., Makroiqtisodiyot. fanidan o'quv qo'llanma.- Samarqand: SamDU nashri, 2021 yil, - 248 bet.

7. Sh.X.Toshmatov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (I qism)" Toshkent "Metodist nashriyoti" - 2023.

8. Sh.X.Toshmatov "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi (II qism)" Toshkent "Metodist nashriyoti" - 2023.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-T.:O'zbekiston, 2021.-46 b.
2. Mirziyoyev Sh.M.. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. Toshkent: O'zbekiston, 2022 – 416 b.
3. Mirziyoyev Sh.M.. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. Matn. Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2024. – 512 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016 yil 7 dekabr. Sh. M.Mirziyoyev. –Toshkent: "O'zbekiston", 2017 y. -48 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlangan nutqlari o'rin olgan. Sh.M. Mirziyoyev. Toshkent: "O'zbekiston", 2017.-488 b.
6. O'lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). – T.: Iqtisod-Moliya, 2014. – 424 b.

Axborot manbalari:

1. www.gov.uz
2. www.lex.uz
3. www.edu.uz
4. www.economist.com